

SANOAT KORXONALARI TASHLAMALARI TAHLILI

Botirova Barchinoy Tursunboy qizi

QarMII “Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ta’lim yo‘nalishi III- kurs talabasi

Annotatsiya: Maqolada sanoat korxonalari misolida sanoat ishlab chiqarishining atrof-muhitga ta’siri va ekologik oqibatlarini bayon etilgan. Albatta, atrof-muhitning yomonlashishi tendentsiyasi mavjud bo‘lishi, atrof-muhit monitoringi tizimining yetarli darajada jihozlanmaganligi; ishlab chiqarishning barcha sohalarida resurs tejovchi texnologiyalarni joriy etish darajasi past ekanligi kuzatiladi.

Kalit so‘zlar: sanoat, atmosfera havosi, atrof-muhit, turg‘un manbalar, kimyoviy moddalar, yashil belbog‘li hudud.

Sanoat sohasidagi taraqqiyot va insonlar hayot tarzining markazlashuvi ularning sog‘lig‘iga aktiv va passiv ta’sir qiluvchi omillarni keltirib chiqarmoqda. Atmosfera havosini ifloslantiruvchi asosiy omillar sanoat korxonalari, zavod va fabrikalar, avtotransport vositalari bilan bog‘liqdir. Eng ko‘p zararli moddalarni havoga tashlaydigan yana bir soha neft-gaz sanoati hisoblanadi. U yiliga 225 ming tonna is gazini havoga chiqaradi, bir kecha-kunduzda 600 tonnadan ziyod moddani atmosferaga tashlaydi. Qashqadaryo viloyatida mavjud bo‘lgan Tabiat resurslari boshqarmasi tomonidan nazoratga olingan korxonalar soni 6800 ta bo‘lib, shundan atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatuvchi 1-toifadagi obyektlar 17 tani, atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatuvchi 2-toifadagi obyektlar 221 tani, 3-toifadagi obyektlar 1797 tani, 4-toifadagi obyektlar 4765 tani tashkil etadi. Shundan, atmosfera havosiga zararli moddalar tashlovchi korxonalar va tashkilotlar soni 558 ta bo‘lib, shundan 1-toifadagi obyektlar soni 17 tani, 2-toifadagi obyektlar soni 62 tani, 3-toifadagi obyektlar soni 467 tani, 4-toifadagi obyektlar soni 12 tani tashkil etadi [1].

Turg‘un manbalardan atmosfera havosiga 150 dan ortiq ifloslantiruvchi moddalar tashlanadi. Bular tashlamalarning asosiy qismini tashkil qiluvchi qattiq moddalar (jumladan, og‘ir metallar, vanadiy besh oksidi, benz(a)piren, oltingugurt dioksidi va ozon, metilmerkaptan, fosforli angidrid, mishyak va boshqa) o‘ziga xos yuqori toksik zararli moddalar tashlamalaridir. Sanoatda yoqilg‘i-energetika, kimyo va neft-kimyo sanoati azot



oksidlari tashlamalarining tashlanishida asosiy hissa qo'shadi. Ularning ulushiga respublika bo'yicha azot oksidi tashlamalarining 86,8% to'g'ri keladi. Biroq, azot oksidlari barcha tashlamalarining Respublika bo'yicha 57,9% va 26,7% energetika tarmog'i ulushiga to'g'ri keladi. Yoqilg'idan foydalanishning past samaradorligi atmosferaga ortiqcha tashlamalar tashlanishiga olib keladi, bu mazkur obyektlar joylashgan aholi yashash punktlari va shaharlarda (Toshkent, Angren, Navoiy) atmosfera havosining ifloslanishi darajasiga ta'sir ko'rsatadi [2].

Atmosfera havosining kimyoviy moddalar bilan ifloslanishi har kuni 25 ta shaharda 65 ta stasionar postlarda, bu yerda havo tarkibidagi 10 ta ifloslantiruvchi va 4 ta og'ir metallar (rux, mis, qo'rg'oshin, kadmiy) miqdori nazorat qilinadi. So'nggi bir necha yil ichida ko'plab shaharlarda nazorat ko'rsatkichlari bo'yicha havo ifloslanishi darajasi barqaror edi. 2010-2021 yillarda butun respublika bo'yicha atmosfera havosining ifloslanish darajasining pasayishi kuzatildi, biroq ifloslanish indeksining o'sishi Angren, Olmaliq va Farg'ona shaharlarida saqlanib qoldi. Umuman olganda, mamlakatimizda havoning ifloslanish darajasi normal darajada ekanligi, 2021-yilning noyabr-dekabr va 2022-yil yanvar oylarida chang bo'ronlari paytida havoning maksimal bir martalik ifloslanishi Guliston, Olmaliq, Chirchiq, Toshkent, Bekobod, Angren, Buxoro, Navoiy va Samarqand shaharlarida qayd etilgan [3].

Kimyo sanoati korxonalarini atrof-muhitning zararli moddalar bilan ifloslanishi xavfi yuqori bo'lgan nuqtalarga kiradi. Ushbu obyektlar faoliyati dorasida xavfli moddalar atrof-muhitga tarqalishi tabiiy holdir. Atmosferaga chiqayotgan tashlanmalarning hajmi, masalan, tog'kon sanoati chiqindilari bilan taqqoslaganda, nisbatan kam bo'lishiga qaramay, ular tabiatga katta zarar yetkazishi mumkin. Kimyo sanoatining ekologiyaga bo'lgan salbiy ta'siri katta bo'lishiga qaramay, ushbu sanoatda inson hayotida muhim bo'lgan muhim mahsulotlar ishlab chiqariladi va iqtisodiyotga ulkan hissa qo'shadi. 2017-2022 yillarda sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 21,1 foizdan 26,7 foizga oshgani, bunda kimyo sanoatining ulushi yuqori ekani sohaning muhimligidan dalolat beradi [4].

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Respublikamizda 2022 yilgi dastlabki hisob-kitoblar bo'yicha atmosferaga tashlanmalar miqdori 2,057 mln tonnani tashkil qilib, shundan, 1,296

mln tonnasi (63,0 foiz) transport vositalari hamda 762,4 ming tonnasi (37,0 foiz) sanoat korxonalari hissasiga to'g'ri kelgan.

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi ma'lumotiga ko'ra, O'zbekistonda atrof-muhitga ta'siri bo'yicha I va II toifaga kiruvchi yirik sanoat korxonalari jami 2420 tani tashkil qiladi[5].

So'nggi yillarda mamlakatimizda ekologik xavfsizlikni ta'minlash, ekologik vaziyatni yaxshilash, chiqindilarning insonlar sog'lig'iga zararli ta'sirini oldini olish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holat sifatini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2023 yil 31 maydagi "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-81-son farmoni imzolangan. Ushbu farmonga asosan, 2023 yil 1 sentabrdan har bir yirik sanoat korxonasi o'zi va tutash hududlarida vazirlik bilan kelishilgan loyiha asosida 3 yil davomida "yashil belbog"lar barpo etishi ko'zda tutilgan [6].

"2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiya" doirasida atmosferaga tashlamalar miqdorini umumiy 10 foizga (har yili 1 foizdan) kamaytirish belgilangan bo'lsada, 2022 yil dastlabki hisob-kitoblar bo'yicha tashlamalar miqdori Toshkent shahrida (242,9 ming tonna) oldingi yilga nisbatan ortgan. Bunga asosan, korxonalarining mavjud chang-gaz tozalash uskunalarining 55 foizdan ortig'i uzoq muddatda foydalanishda bo'lganligi hamda ma'nan eskirganligi deb e'tirof etish mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, 155 ta sanoat va ishlab chiqarish korxonalaridagi 714 ta chang-gaz tozalash uskunalarining samaradorligini oshirish; sanoat korxonalari joylashgan va to'tash hududlarda yashil belbog'larini (sanitariya himoya zonalarini) barpo etish; yangidan foydalanishga topshirilayotgan ishlab chiqarish quvvatlarining atmosfera havosini ifloslantiruvchi turg'un manbalarida samaradorligi 99,5 foizdan past bo'lmagan chang va gazlarni tutib qoluvchi qurilmalar qo'llanilishini ta'minlash maqsadga muvofiqdir.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Uzakov Z.Z., Jumayeva M.D. SANOAT KORXONALARINING ATROF-MUHITGA TA'SIRINI BAHOLASH (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) //Евразийский журнал медицинских и естественных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 7. – С. 67-69.
2. <https://xs.uz/uzkr/post/atrof-muhit-va-barqaror-rivozhlanish>
3. “ЮКСАЛИШ” Умуммиллий ҳаракати ва ижтимоий-иқтисодий ташаббуслар институтининг экологик ахборотномаси. 2022 йил 15 июнь.
4. <https://parliament.gov.uz/oz/articles/1765>
5. <https://kun.uz/31312878>
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 31.05.2023 йилдаги “Экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш соҳасини трансформация қилиш ва ваколатли давлат органи фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-81-сон Фармони.